

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYAT

Naimova Binafsha

Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani
8-IDUM ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Anatatsiya : ushbu maqolada Muhammad Yusufning ôzbek adabiyotiga qoshgan hissasi ,she'riyat ,ôziga xos vatan tuyg'usi bilan yashaganligi ,yosh avlod uchun yetarlicha namuna bôla oladigan boy merosi haqida sôz yuritiladi.

Annotation: This article talks about Muhammad Yusuf's contribution to Uzbek literature, his poetry, his unique sense of homeland, and his rich legacy as a role model for the younger generation.

Аннотация: В этой статье рассказывается о вкладе Мухаммада Юсуфа в узбекскую литературу, его поэзии, его уникальном чувстве родины и его богатом наследии как образце для подражания для молодого поколения.

Kalit sôzlar: Taffakur,Qovunchi qishlog'i,Kitobsevarlar ,“Saylanma”,“Erka kiyik,”O‘zbekiston xalq shoiri

Kirish qismi :

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf 1954 yil 26 aprelda Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog‘ida dehqon oilasida tavallud topdi. Toshkentdagি Rus tili va adabiyoti institutida (hozirgi Jahon tillari universiteti) tahsil oldi. Respublika Kitobsevarlar jamiyatida, “Toshkent oqshomi” gazetasida, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida, “Tafakkur” jurnalida, “O‘zbekiston ovozi” gazetasida xizmat qildi. O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish Akademiyasida tahsil olgach, 1998 yildan umrining oxirigacha O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida faoliyat yuritdi.



Asosiy qism:

Muhammad Yusuf avvalo xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o‘xshamagan misralarda ta’riflagan she’rlari, qo‘schiqlari bilan tanildi, shuhrat qozondi. El mehriga sazovor bo‘ldi.

Mustaqillikning ilk davrlaridayoq “Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston”, deya kurash maydoniga tushgan, Istiqlolni baralla kuylagan, vijdoni uyg‘oq ijodkor Muhammad Yusufning hayot yo‘li, ijodi va qizg‘in ijtimoiy faoliyati yoshlarimiz uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning “Tanish teraklar” (1985), “Bulbulga bir gapim bor” (1987), “Iltijo” (1988), “Uyqudagi qiz” (1989), “Halima ena allalari” (1989), “Ishq kemasi” (1990), “Ko‘nglimda bir yor” (1991), “Bevafo ko‘p ekan” (1991), “Erka kiyik” (1992), “Saylanma”, “Biz baxtli bo‘lamiz”, “Osmonimga olib ketaman”, “Ulug‘imsan, Vatanim” singari o‘ndan ortiq she’riy to‘plamlari adabiyotimizning oltin merosiga aylandi.

Uning milliy adabiyotimiz va madaniyatimizni, xalqimiz ma’naviyati, ongu tafakkurini yuksaltirish, yosh avlod qalbida o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixon tuyg‘ularini kamol toptirish borasidagi xizmatlarini inobatga olib, 2013 yilning 27 dekabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi hamda shoirning tavallud ayyomi milliy adabiyotimizning haqiqiy bayrami sifatida tantana qilindi.

U o‘nga yaqin she’riy to‘plamlar, ko‘plab qo‘schiqlarning muallifi sifatida keng kitobxonlar qalbiga kirib ulgurdi. Shoirning dastlabki she’rlari “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida 1976 yili e’lon qilindi. So‘ngra “Tanish teraklar” (1985), “Bulbulga bir gapim bor” (1987), “Iltijo” (1988), “Uyqudagi qiz” (1989), “Halima enam allalari” (1989), “Ishq kemasi” (1990), “Ko‘nglimda bir yor” (1991), “Bevafo ko‘p ekan” (1991), “Erka kiyik” (1992), “Yolg‘onchi yor” (1994) kabi she’riy to‘plamlari, saylanmalari nashr etildi.

1989 yilda esa “Uyqudagi qiz” nomli she’riy to‘plami uchun unga respublika Yoshlar tashkilotining mukofoti berildi.

U rostgo‘y shoir, halol va pokiza qalb egasi edi. Shoir muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo‘schiq to‘qiydimi yoki tariximiz sahifalarini qalamga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Satlardagi raxonlik, soddalik va xalqonalik sabab shoir she’rlari tezda yodda qoladi.

1998 yili Muhammad Yusufga “O‘zbekiston xalq shoiri” degan yuksak unvon berildi.

Har bir sherlariga tasnif:

Iqror....

Vatan haqida yozilgan she’lar juda ko‘p, ammo ular orasida Muhammad Yusuf she’rlari o‘zining soddaligi, samimiyligi, dilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Ushbu she’rning lirik qahramoni ham Vatanini shunchaki sevmaydi, balki yurak-yuragidan bir insoniy muhabbat bilan sevadiki, u Rimni bedapoyaga, Parijning eng go‘zal restoranini esa yurtining bitta tandiriga ham almashmaydi...

Vatanim..

Muhammad Yusufning «Vatanim» she’rida vatanga muhabbat hissi juda samimiyl va sodda ifoda etilgan. Shoirning ona yurtdan tuygan mehri xuddi singilning, onaning mehridek iliq, u bir aka bo‘lib, bir o‘g‘il bo‘lib, bu mehrga javob bergisi, agar shu yurt

«o'g'lim» deya unga mushtoq bo'lsa, har qanday mushkulot qarshisiga chiqqisi, kelgusi padarkushlardan keljak ulug'beklarini pana qilib quchgisi keladi...

Biz baxtli bolamiz....

Muhabbatning go'zal kechinmalari samimiylar va beg'ubor tarzda ifodalangan bu she'r barcha oshiqlarning madhiyasiga aylanib ketgan desak adashmaymiz. Qalbiga otashin hislar mehmon bo'lgan yigitlar hijron tunlari-yu umid tonglarida bu she'rni pichirlab yuradilar. Sababi bu satrlar ko'ngil so'zlari. Ko'ngildan chiqqan so'z ko'ngilga oson yetib boradi va u yerni umrbod maskan etadi.

Yurtim ado bolmas armonlaring bor.....

O'zbek xalqi dunyodagi eng qadimgi xalqlardan biri sanaladi. Va bu xalq tarixda misli ko'rilmagan hodisalarni boshdan kechirgan. Xalqimiz bamisli samandardek barcha sinovlardan omon chiqdi, sharaf bilan chiqdi. Guruch kurmaksiz bo'lmanidek, yov kelganda o'zini chetga olgan, joni shirinlik qilib sha'nidan kechgan, hatto do'stlarini sotgan kimsalarni ham, afsuski, tarix yoddan chiqarmaydi. Ularning kirdikorlari tufayli yurtning «ado bo'lmas armonlari, toshlarni yig'latgan dostonlari» paydo bo'ldi...

Onajon....

Topmoq - yo'qotmoqdir, Yo'qotmoq - topmoq, Sen so'lib, Men yashab, To'lishimga boq. Sensiz topganidan Ko'proq yo'qotdim - Sen meni yupatding, Seni yig'latdim, Sen meni yaratding, Seni tugatdim. Uyalmay ONA deb, Kelishimga boq!.. Sog'inch haqda she'rlar Yozdim o'zimcha, Menden peshonangda Dog'lar tizimcha. O'g'il bo'lmay o'lay, Attang, ming attang. Qiz tug'sang netardi, Ko'proq qiz tug'sang!.. Tirkak bo'lolmadim Bitta qizingcha...

Onaizor...

Ko`nglim qolsa bulbuldan ham, guldan ham, Qolar bo`lsam bir kun axir tildan ham... Agar bir zot yig`lasa chin dildan ham - Onam yig`lar, onam yig`lar, onam u... Sig`may qolsam shunday keng bu jahona, Osmonlarga ruhim bo'lsa ravona, Jonsiz tanim ustida ham parvona - Onam yig`lar, onam yig`lar, onam u...

Kapalaklar odamlardan mehribon....

Tug'ilgandan men sho'rlikning bag'rim qon, Bir jismimda talashadi ikki jon. Jon talashsam, tepamda charx urgan ul, Kapalaklar odamlardan mehribon... Oqqushlarim, oq yomg'irda ucharlar, Saharlardan shudring-sharob icharlar. Tanlamayin qabrlarni qucharlar, Kapalaklar odamlardan mehribon...

Tilak....

Har kimning ham sochlariqa oq tushsin, Ajin tushsin yuzlariga, dog` tushsin. Har kimning ham quvvat ketib belidan, Qo'llariga aso — bir tayoq tushsin. Iymoni sof, yuzga kirib yorug` yuz, To`ylar ko'rib yelkasidan tog` tushsin. Jismiga so`nggi safar oldidan O`z bolasin qo`lidan tuproq tushsin...

Mexr qolur...

Odamni odam qilib turgan, uning hayotiga insoniy mazmun baxsh etadigan inja tuyg'ular, avvalo, mehr va muhabbatdir. Shu tuyg'ular tufayli olamda hayot davom etadi, tiriklik tantana qiladi. Zero, ota-onaning farzandga mehri, akaning singilga achinishi,

do'stning do'stga madadi, yigitning qizga muhabbat... Insonlararo munosabatlarning asosida, aslida mana shu tuyg'ular yotibdi...

Shukur deysan sen qancha...

Ta'magirni tortqilab, Nafsi qo'ymas deydilar. Nokas o'zi to'ysa ham, Ko'zi to'ymas deydilar. Boq bir yorug` olamga — Kimlar zo`rg`a kun ko`rar. Odamlar bor, bog`dagi Bulbuldan ham pul so`rar...

Tavallo....

Oq yo'rgakka o`ragansan o`zing bizni, Ham oq yuvib-taragansan o`zing bizni. Beshigimiz uzra bedor ona bo'lib, Kunimizga yaragansan o`zing bizni. Fidoying bo`lgaymiz seni, O`zbekiston, Hech kimga bermaymiz seni, O`zbekiston!.. Qalqoning bor, kim qasd qilsa gar joningga, Alpomishlar ruhi yor har o`g`loningga. Asragaymiz giyohing ham gulday o`pib, Yovlar yaqin yo`lolmagay qo`rg`oningga...

Lolaqizg`aldoq

Lolaqizg`aldoq - eng go'zal va nafis gul. Lolaqizg`aldoq - bag'ri qon ayol. Garchi bu she'r Shavkat Rahmon tilidan uning oila a'zolariga bag'ishlab yozilgan bo'lsa-da, unda Muhammad Yusufning ham o'z qismati ko'rindi. She'rdagi dard, iztirob yuki shu qadar og'irki, uni o'qigan kitobxon tabiiy ravishda lirik qahramon dardini his qiladi va qalbida unga hamdardlik hissini tuyadi...

Özbek qizi...

Bu Momo Havodan ularga odat: Ushlasa gul ushlar qo'lini faqat, Kuyovga chiqmagan o`zbek qizlarin O`psa faqat shamol o`par yuzlarin. Bu Momo Havodan ularga odat: Nozik belda qirqta kokili qavat, Silasa yomg`irlar silaydi faqat, Ko`rsa faqat osmon ko`rar ko`zlarin — Kuyovga chiqmagan o`zbek qizlarin...

Surat....

Muhammad Yusufning «Surat» she'ri shoirning o'z ichki dunyosini kashf etishga urinishi aks etgan asardir. She'rning lirik qahramoni «Men bir g'alatiman, Men alohida» der ekan, uning bu e'tirofini aslo kibrga, manmanlik da'vosiga yo'ymaslik lozim. Uning boshqalardan farqli birgina, biroq nihoyatda muhim fazilat bor. U ham bo'lsa, olam va odamni ko'ngil ko'zi bilan ko'rishi, idrok etishidir.

Xulosa qism :

Muhammad Yusuf she'rlari özbek adabiyotidagi nodir sherlardir .Uni ôqib katta bôladigan har bir yosh avlod ongida vatanga muhabbat g'oyalari singadi .She'rlarda soddadillik ,mexr, oq kôngillik ba'zida achiq nadomat hamda afsuslanish ,xalq dardi aks etgan misralar ham mavjuddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimbek Kamiy, Dilni obod aylangiz..., T., 1998.
2. Begali Qosimov. O'zME. Birinchi jild. Toskent, 2000.
3. Zufarov S. Nodir qo'lyozmalar. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 1954-yil 4-son.

4. Mirxoldorov M. Sayramlik shoir. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati», 1990-yil
10 avgust.
5. O‘zbek adabiyoti. 4-tom, 1-kitob. Toshkent, 1959.
- 6.Qayyumov P., Tazkirai Qayyumiyl [3j.li], 2j., T., 1998;